

## AKADEMIK XONANDALIKDA ERKAK OVOZLARI VA ULARNING MAQOM IJROCHILIGI BILAN UYG'UN JIHLARI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.009>

Bobir Kenjayev

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy maqom xonandaligida erkak ovozlarning badiiy va texnik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda maqom ijrochiligida akademik vokal elementlaridan foydalanish masalasi, ovoz barqarorligini ta'minlash, sahna talablari hamda ijrochining uzoq muddatli faoliyatini ta'minlash omillari yoritiladi. Shuningdek, an'anaviy maqom talqini bilan akademik xonandalik o'rtasidagi uyg'unlik masalalari ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqola zamonaviy xonanda tayyorlash jarayonida milliy ijrochilik an'alarini saqlagan holda ilmiy vokal tajribasidan foydalanish zaruratini ko'rsatib beradi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy maqom, erkak ovozlari, akademik vokal, ijrochilik talqini, ovoz texnikasi

## MALE VOICES IN ACADEMIC SINGING AND THEIR COMPATIBILITY WITH MAQOM PERFORMANCE

Bobir Kenjayev

Uzbekistan National Institute of Music named after Yunus Rajabi

**Abstract:** The article analyzes the artistic and technical potential of male voices in contemporary maqom singing. It examines the use of academic vocal techniques in traditional performance, issues of vocal stability, and modern stage requirements. Particular attention is paid to the interaction between traditional maqom interpretation and academically grounded vocal methods. The study highlights the importance of integrating national performance traditions with academic vocal experience in the training of contemporary maqom singers.

**Keywords:** contemporary maqom, male voices, academic vocal technique, performance interpretation, vocal training

Zamonaviy maqom ijrochiligi bugungi kunda an'anaviy ijro tajribasi bilan bir qatorda akademik vokal talablari ta'sirida rivojlanib bormoqda. Sahna madaniyati, ijro texnikasiga qo'yiladigan talablarning ortishi hamda xonandaning uzoq muddatli ijodiy faoliyat yuritish zarurati ovoz bilan ishlash masalasini ilmiy jihatdan qayta ko'rib

chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, erkak ovozlarining maqom ijrochiligidagi oʻrni va ularni zamonaviy talqin asosida shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolada maqom xonandaligi va akademik vokal sanʼati oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik, erkak ovozlarining badiiy va texnik imkoniyatlari, shuningdek, zamonaviy xonanda tayyorlash jarayonida milliy anʼana va ilmiy yondashuv uygʻunligi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - maqom ijrochiligida erkak ovozlarini zamonaviy talqin qilishda akademik vokal tajribasidan oqilona foydalanish yoʻllarini ilmiy asoslashdan iborat.

Akademik xonandalik yoʻnalishida ovoz tushunchasi aniq ilmiy-meʼyoriy mezonlar asosida shakllangan. Bu tizimda erkak ovozlari asosan ovoz balandligi, tembr xususiyati va registrlararo oʻtish imkoniyatlariga koʻra tasniflanadi. Akademik vokal maktablarida ovoz bilan ishlash jarayoni asosan texnik aniqlik, tovushning tozaligi va barqarorligiga tayanadi.

Shu jihatdan akademik xonandalikda ovoz ijrochilikning asosiy "asbobi" sifatida qaraladi. Ovozning tabiiy imkoniyatlari ilmiy mashqlar, fonopedik usullar orqali rivojlantiriladi. Bu jarayonda xonandaning ovoz diapazoni, nafas bilan ishlashi, rezonatorlardan foydalanish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Akademik xonandalikda erkak ovozlari uch asosiy turga boʻlinadi: tenor, bariton va bas. Mazkur tasnif xalqaro miqyosda qabul qilingan boʻlib, opera va akademik sahna ijrochiligida muhim amaliy ahamiyatga ega.

## 2.2. Tenor ovozi va uning ijrochilik imkoniyatlari

Tenor akademik xonandalikdagi erkak ovozlarining eng baland turi hisoblanadi. Bu ovoz turi engillik, harakatchanlik va yuqori registrlarda erkin yangrash xususiyati bilan ajralib turadi. Tenor ovozida kuylash ijrochidan ovozni yuqori pardalarda zoʻriqishsiz ushlab turish, ovozning sinmasligini taʼminlashni talab etadi.

Akademik sahna ijrochiligida tenor ovozi koʻpincha bosh qahramonlar, markaziy obrazlar bilan bogʻlanadi. Buning sababi shundaki, tenor ovozining yorqinligi va emotsional ochiqligi sahna xarakterini jonlantirishda muhim rol oʻynaydi. Tenor ovozining turli koʻrinishlari mavjud boʻlib, ularning har biri ovoz tembri va kuchiga koʻra farqlanadi.

Maqom xonandaligi bilan qiyoslanganda, tenor ovozining ayrim jihatlari "jarangdor kuvrak ovoz" va "tik ovoz" turlariga yaqin keladi. Ayniqsa baland pardalarda ravon harakat, bezaklarga moyillik va ovozning ochiq yangrashi bu oʻxshashlikni yaqqol koʻrsatadi. Biroq maqom ijrochiligida tenor kabi baland ovozdan foydalanish doimo maqsad boʻlib xizmat qilmaydi, chunki milliy ijrochilikda ovozning ruhiy taʼsiri balandlikdan ustun qoʻyiladi.

Bariton ovozi va uning ifodaviy imkoniyatlari

Bariton akademik erkak ovozlari orasida eng muvozanatli va ko‘p qirrali ovoz turi hisoblanadi. Bu ovoz turi o‘rta registrda quyuq, mayin va barqaror yangraydi. Bariton ovozi nafaqat lirik, balki dramatik xarakterdagi asarlarni ham muvaffaqiyatli ijro etish imkonini beradi.

Akademik xonandalikda bariton ovoz egalariga ko‘pincha etuk, vazmin, hayotiy tajribaga ega obrazlar topshiriladi. Chunki bu ovoz turi tinglovchiga ishonch va barqarorlik hissini uyg‘otadi. Bariton ovozida nafas bilan ishlash muhim bo‘lib, ovozning quyi va o‘rta pardalarida mustahkamlik talab etiladi.

Maqom xonandaligi nuqtai nazaridan qaralganda, bariton ovozi “nor ovoz” va qisman “xasta ishkami ovoz” turlariga yaqin keladi. Ayniqsa vazmin, salobatli maqom yo‘llarida bariton tembriga yaqin ovozlar katta badiiy imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Bariton ovozining ichki chuqurligi maqomning falsafiy va tasavvufiy qatlamlarini ochib berishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

#### Bas ovozi va uning sahna talqini

Bas akademik xonandalikdagi eng past va kamyob erkak ovoz turi hisoblanadi. Bu ovoz turi kuchli rezonans, keng nafas va quyi registrlarda barqaror yangrash xususiyati bilan ajralib turadi. Bas ovozi asosan salobatli, kuchli xarakterga ega obrazlar bilan bog‘lanadi.

Akademik sahnada bas ovoz ko‘pincha hukmdorlar, donishmandlar, falsafiy obrazlarni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Bu ovoz turi sahnada kuchli badiiy ta‘sir uyg‘otish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, undan foydalanish texnik jihatdan murakkab hisoblanadi.

Maqom xonandaligida bas ovozga to‘liq mos keladigan an‘anaviy tasnif mavjud emas. Biroq ayrim “nor ovoz”li xonandalar pastki pardalarda basga yaqin tembrda yangray olganlar. Bu holat maqom ijrochiligida ovozning qat‘iy diapazon bilan emas, balki amaliy qulaylik va badiiy maqsad bilan baholanganini ko‘rsatadi.

#### Akademik va an‘anaviy xonandalikda ovozga yondashuv farqi

Akademik xonandalikda ovoz - aniq me‘yor va texnik qoidalar asosida shakllantiriladigan ijro vositasidir. An‘anaviy maqom xonandaligida esa ovoz - ijrochining ichki dunyosi, ruhiy holati va estetik qarashlari bilan uzviy bog‘liq hodisa sifatida qaraladi.

Bu ikki yondashuv o‘rtasidagi farq ularni qarama-qarshi qo‘yish uchun emas, balki har birining o‘ziga xos afzalliklarini anglash uchun muhimdir. Zamonaviy xonanda tayyorlash jarayonida akademik texnika va milliy ijrochilik tafakkurini uyg‘unlashtirish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

#### Ovoz tarbiyasi masalasida ustoz-shogird an‘anasi

An‘anaviy maqom xonandaligida ovoz bilan ishlash jarayoni asrlar davomida ustoz-shogird an‘anasi asosida shakllangan. Bu tizimda ovoz faqat texnik jihatdan emas, balki ruhiy va estetik tomondan ham tarbiyalangan. Ustozlar shogirdning ovoz

imkoniyatini majburlab kengaytirishga emas, balki uning tabiiy xususiyatlarini to'g'ri yo'naltirishga e'tibor qaratganlar.

Maqom xonandaligida ovozni tarbiyalash jarayoni ko'pincha sekin va bosqichma-bosqich olib borilgan. Shogird dastlab past va o'rta pardalarda ijro qilishga o'rgatilgan, faqat ovoz barqarorlashgachgina yuqori pardalarga murojaat qilingan. Bu yondashuv ovozning uzoq yillar davomida sog'lom saqlanishiga xizmat qilgan.

Akademik xonandalikda esa ovoz tarbiyasi maxsus mashqlar, ilmiy asoslangan metodikalar orqali amalga oshiriladi. Nafas bilan ishlash, rezonatorlarni faollashtirish, ovoz registrlarini muvofiqlashtirish kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi. Har ikki tizimda yondashuvlar turlicha bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi - ovozni asrash va uni ijrochilik ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishdan iborat.

Zamonaviy maqom ijrochiligida akademik texnikaning o'rni

Bugungi kunda maqom xonandaligi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Sahna talablari, kontsert zallari akustikasi, yozuv texnologiyalarining rivoji ijrochidan yanada barqaror va toza ovozni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan akademik xonandalikda shakllangan ayrim texnik usullar zamonaviy maqom ijrochiligida ham samarali qo'llanilmoqda.

Masalan, nafasni to'g'ri taqsimlash, ovozni majburlamasdan jarangdor qilish, uzoq davomli avjlarni sinmasdan ijro etish kabi jihatlar akademik vokal tajribasi bilan bevosita bog'liq. Biroq bu usullar maqomning milliy ohangdorligi va ifodaviy erkinligini buzmasligi lozim. Aks holda ijro sun'iy tus olib, milliy ruhdan uzoqlashishi mumkin.

Shu sababli zamonaviy maqom xonandasi akademik texnikani maqsad emas, balki vosita sifatida qabul qilishi lozim. Asosiy e'tibor maqomning ichki mantiqi, lad harakati va ruhiy mazmuniga qaratilishi zarur.

Erkak ovozining maqomdagi badiiy vazifasi

Maqom ijrochiligida erkak ovozi ko'pincha etakchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bu ovoz orqali maqomning falsafiy mazmuni, dramatik rivoji va ruhiy qatlamlari ochib beriladi. Erkak ovozining kuchi va barqarorligi maqomning murakkab shakllarini to'liq ifodalash imkonini beradi.

An'anaviy tasnifda mavjud bo'lgan "nor", "tik", "ishkami", "pang" kabi ovoz turlari aslida maqomning turli estetik vazifalariga xizmat qiladi. Masalan, "nor ovoz" salobat va vazminlikni, "tik ovoz" qat'iyat va jo'shqinlikni, "ishkami ovoz" esa ichki iztirob va samimiyatni ifodalaydi. Bu xilma-xillik maqom ijrosining badiiy boyligini ta'minlaydi.

Akademik tasnifda esa erkak ovozlari sahna obrazlarini yaratish uchun xizmat qiladi. Shu jihatdan qaralganda, har ikki tizimda ovoz badiiy g'oyani etkazish vositasi sifatida qaraladi, faqat talqin va ifoda shakllari turlicha.

Bugungi kunda professional xonanda tayyorlash jarayonida milliy va akademik tajribani uyg'unlashtirish dolzarb masalaga aylangan. Faqat an'anaviy usulga tayangan holda ovozni rivojlantirish ba'zan texnik cheklovlarga olib kelishi mumkin. Aksincha, faqat akademik texnikaga suyanish esa milliy ohangdorlikning yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Shu bois zamonaviy xonanda tayyorlashda quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

- ovozning tabiiy imkoniyatlarini saqlab qolish;
- milliy ijrochilik an'analari chuqur o'zlashtirish;
- akademik vokal texnikasidan me'yorida foydalanish;
- maqomning ruhiy va estetik mazmunini anglash.

Bu yondashuv xonandaga nafaqat sahnada muvaffaqiyat qozonish, balki uzoq yillar davomida ijod qilish imkonini beradi.

Zamonaviy maqom xonandaligida erkak ovozlarining badiiy va texnik imkoniyatlari, shuningdek, akademik vokal tajribasining maqom ijrochiligiga ta'siri atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi maqom ijrochiligi nafaqat an'anaviy uslubga tayanishi, balki zamonaviy sahna va ijrochilik talablari bilan hamohang rivojlanishi zarur.

Maqom xonandaligida akademik vokal texnikasidan foydalanish masalasi ehtiyotkorlik va me'yor talab etadi. Nafasni to'g'ri boshqarish, ovozni majburlamasdan jarangdorlikka erishish, ijro davomida ovoz barqarorligini saqlash kabi jihatlar akademik vokal tajribasining ijobiy jihatlari sifatida baholandi. Shu bilan birga, ushbu texnik vositalar maqomning milliy ohangdorligi, lad xususiyatlari va erkin badiiy ifodasiga zarar etkazmasligi lozimligi alohida ta'kidlandi.

Erkak ovozlarining maqomdagi badiiy vazifasi ham ochib berildi. Erkak ovozi orqali maqom asarlarining falsafiy mazmuni, ichki drammatizmi va ruhiy kechinmalari etkazilishi, ijrochining sahnadagi mas'uliyati va badiiy tafakkuri bilan bevosita bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslandi. Bu jarayonda ovoz texnikasi maqsad emas, balki badiiy g'oyani ifodalash vositasi sifatida talqin qilindi.

Shuningdek, zamonaviy xonanda tayyorlash masalasi muhim ilmiy-amaliy muammo sifatida ko'rib chiqildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, faqat an'anaviy yoki faqat akademik yondashuvga tayangan holda xonanda tarbiyalash etarli emas. Milliy maqom an'analari va ilmiy vokal metodikalarining uyg'unligi xonandaning ijrochilik salohiyatini oshirish, ovoz sog'lig'ini saqlash va uzoq muddatli ijodiy faoliyatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, bayon etilgan fikrlar zamonaviy maqom xonandaligida erkak ovozlarini rivojlantirishda muvozanatli, ilmiy asoslangan va milliy ruhga sodiq yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuv maqom san'atining bugungi rivoji va kelajak avlod xonandalarini etuk ijrochi sifatida shakllantirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

An'anaviy maqom xonandaligida erkak ovozlari xalq musiqiy tafakkuri asosida shakllangan bo'lib, ular nafaqat ovoz balandligi yoki tembr bilan, balki ijroning ruhiy-estetik mazmuni bilan baholanadi.

"Nor", "tik", "jarangdor kuvrak", "ishkami" va "pang" kabi ovoz turlari maqom ijrochiligida muayyan badiiy vazifalarni bajaradi.

Akademik xonandalikda erkak ovozlari ilmiy asoslangan tasnif orqali aniqlanadi va sahna ijrochiligi ehtiyojlariga xizmat qiladi. Har ikki tizimning o'ziga xos yutuqlari mavjud bo'lib, ularni qarama-qarshi qo'yish emas, balki uyg'un holda qo'llash zamonaviy ijrochilikning muhim talabi hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, maqom xonandaligida erkak ovozlari o'rganish jarayonida milliy an'ana, ustoz-shogird maktabi va akademik vokal tajribasini uyg'unlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan samarali natijalar beradi. Bu esa o'zbek maqom san'atining kelgusi rivoji uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.A.Hamidova, O.Ibrohimov, D.Mulajonov, "Xonandalik san'ati, Jahon va O'zbek milliy an'analari", "San'at" jurnali nashriyoti, Toshkent 2009.
2. Евсейев, Ф.Е. Школа пения. Теория и практика для всех голосов: учебное пособие / Ф.Е. Евсейев. - СПб.: Лан, 2015.
3. Емельянов, В.В. Фонопедический метод формирования певческого голосообразования: методические рекомендации для учителей музыки. - Новосибирск: Наука, 199.
4. Е.Петрова, "О динамике звука певческого голоса" Moskva 1963.
5. A. Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" "Fan" nashriyoti, Toshkent 1993.